



TALABALARDA INTELLEKTUAL HISSIYOTLARNING RIVOJLANISHI VA ULARNING AKADEMIK FAOLLIKKA TA'SIRI

Iroda Xasanova Usanovna

Aniq va Ijtimoiy Fanlar Universiteti

2-bosqich magistranti

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda talabalardan nafaqat mustahkam nazariy bilim, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashuv va ichki motivatsiya talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, talabalarining bilish faoliyatini faollashtiruvchi psixologik omillarni o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Intellectual hissiyotlar bilish jarayonida yuzaga keladigan qiziqish, hayrat, shubha, izlanish ehtiyoji va intellectual qoniqish kabi emotsional holatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur hissiyotlar talabaning tafakkur jarayonini rag'batlantiradi va o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradi. Agar o'quv jarayonida talaba emotsional jihatdan faol ishtirok etsa, bilimlarni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Aksin cha, hissiy jihatdan sust ishtirok akademik motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois talabalarda intellectual hissiyotlarning rivojlanish darajasi va ularning akademik faollikka ta'sirini aniqlash ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi – talabalarda intellectual hissiyotlarning rivojlanish darajasi va ularning akademik faollik hamda o'quv motivatsiyasiga ta'sirini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

- Intellectual hissiyotlarning psixologik mohiyatini tahlil qilish;
- Talabalarda akademik motivatsiya darajasini aniqlash;
- Intellectual hissiyotlar va akademik faollik o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan o'rganish.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi:

- Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- So'rovnoma metodi;
- Kuzatish metodi;
- Natijalarni foizli tahlil qilish.

Tadqiqotda oliy ta'lim muassasasining 1–2-bosqich talabalari orasidan 42 nafar respondent ishtirok etdi.

So'rovnoma natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- ✓ 69% talabalar muammoli topshiriqlar ularning qiziqishini oshirishini ta'kidladi;
- ✓ 61% respondentlar mustaqil izlanish jarayonida intellectual qoniqish his qilishlarini bildirdi;
- ✓ 57% talabalar o'qituvchining rag'batlari va ijobiy munosabatlari o'qishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishini qayd etdi;



✓ 63% talabalar interfaol metodlar qo'llanilganda darsga faolroq jalb qilinishini e'tirof etdi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, intellektual hissiyotlari yuqori darajada rivojlangan talabalar akademik faollik va motivatsiya ko'rsatkichlari bo'yicha ham yuqori natijalarni namoyon etadilar. Bu esa mazkur omillar o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar psixologik nazariyalar bilan uyg'unlik kasb etadi. Intellektual hissiyotlar bilish jarayonining emotsional komponenti sifatida ichki motivatsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Qiziqish va hayrat hissi tafakkur jarayonini faollashtirib, talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammoli vaziyatlar, bahs-munozara va ijodiy topshiriqlar talabalarda izlanish ehtiyojini kuchaytiradi. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va bilimlarning chuqur o'zlashtirilishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, intellektual hissiyotlar talabalarning akademik faolligi va motivatsiyasini oshiruvchi muhim psixologik omildir. Qiziqish, intellektual qoniqish va izlanish ehtiyoji o'quv jarayonining samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida muammoli ta'lim, interfaol metodlar va refleksiv mashg'ulotlarni keng qo'llash talabalarda intellektual hissiyotlarni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu esa ularning kasbiy shakllanishi va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoumarov G. B. Psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Rahmonqulova N. A. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2021.
3. Yo'ldoshev T., Karimova N. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Xo'jayev A. M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent, 2020.
5. Vygotskiy L. S. Tafakkur va nutq. – Moskva, 1982.
6. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York, 1995.